

AFORIZMLARNING LINGVISTIK MAQOMI

Eshmuratov Umidjon Temurovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada aforizmlarning tilshunoslikdagi o'рни va lingvistik maqomi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Aforizm tushunchasi, uning asosiy belgilari, frazeologik birliklar, maqollar va hikmatli so'zlar bilan o'xshash hamda farqli jihatlari yoritiladi. Shuningdek, aforizmlarning sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan izohlangan.

Kalit so'zlar: aforizm, lingvistik maqom, paremiologiya, frazeologiya, sintaksis, semantika.

Abstract. This article scientifically analyzes the role and linguistic status of aphorisms in linguistics. The concept of an aphorism, its main features, similarities and differences with phraseological units, proverbs and wise sayings are highlighted. Also, the syntactic, semantic and pragmatic properties of aphorisms are explained from the point of view of linguistics.

Keywords: aphorism, linguistic status, paremiology, phraseology, syntax, semantics.

Tarixiy manbalarda ham xalq orasida ham halqimizning aforistik ijodi turli-tuman atamalar bilan nomlanib keladi. *Maqol, matal, naql, masal, zarbulmasal, otalar so'zi, hikmatli so'z, aforizm, hikoyat, hikmat, burungilar so'zi, mashoyixlar so'zlari* va boshqalar ana shunday atamalardandir. Bu terminlar ko'p hollarda hozirgacha ham umuman aforistik ijodga nisbatan aralash ishlatilib, birining o'rniga ikkinchisi qo'llanib kelmoqda. Ammo ularni qo'llashda ma'lum chegaralar belgilash, aniqliklar kiritish zarur¹.

S.Tursunov, B.Murtozoyev, O.Allanovlarning "Xalq hikmatlarining barkamol avlod tarbiyasidagi o'рни" nomli kitobida aforizmlarni "hikmat durdonasi" deb ta'rif berib, ajdodlarimizning hikmatlarini o'rganish, undan xulosalar chiqarish, oila, farzand, mahalla, yurt tinchligi uchun hushyor, ogoh bo'lish, bir noaniq yoki qo'pol so'z kishilar o'rtasida tushunmovchiliklar keltirib chiqarishi mumkinligini his etish hamda buning oldini olishda hikmatlarning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini ta'kidlaydi².

¹ Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик. Тузувчилар: Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Тошкент: "Фан", 1987. – Б.14.

² Турсунов С., Муртозоев Б. Алланов О. "Халқ ҳикматларининг баркамол авлод тарбиясидаги ўрни. – Тошкент: "Янги нашр" нашриёти, 2014. – Б.4.

Aforizmlarga ta'rif berish, ularning tabiati va hayotiy vazifalarini belgilash eramizdan oldingi IV asrda yashagan faylasuf Gippokrat davridan boshlangan. U yunoncha "aforizm" terminiga chegaralash ma'nosidan olingan leksema deb qaraydi³.

Z.D.Toshpo'latovning "Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati" nomli nomzodlik dissertatsiyasida berilgan ma'lumotga ko'ra, aforizm dastlab tibbiy qarashlar, turli kasalliklarning belgi va alomatlari haqidagi xulosalarini bevosita aforizm shaklida ixcham, purhikmat, mazmunli xukmlar tarzida ifodalagan. Keyinchalik bu termin falsafa, ilm bilan shug'ullanuvchi mutafakkirlar tomonidan keng istifoda etila boshlandi⁴.

M.Saidova "Sinfdan tashqari o'qish darslarida maqol va hikmatlardan foydalanish" nomli kitobida hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir, noma'lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste'dodining masofa bilmas shu'lalari, zulm, adovat, haqsizlik ko'ksiga sanchiluvchi adolat deb, hikmat so'zining lug'aviy ma'nosi "o'ta donolik"⁵- deb ta'kidlangan.

Adabiyotshunoslik terminlari izohiga bag'ishlangan lug'atda berilgan ta'rifga ko'ra, "Aforizm (yunon. – hikmatli so'z) – muallifi ma'lum bo'lgan, chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli gap. Aforizmda so'z qancha oz bo'lsa, uning ifodalaligi, o'tkirligi shuncha ortadi. Xalq maqollaridan farqli ravishda aforizmlarning muallifi hamma vaqt aniq bo'ladi. Xalq maqollari ham keng ma'noda xalq aforizmlari deyiladi"⁶.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da ta'kidlanishicha, *aforizm* [r<grek] chuqur, ma'noli, qisqa, ixcham, ibora, xikmatli so'z⁷.

B.Mengliyev, A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova kabi mahalliy tilshunoslar paremiologik birliklarni barqaror birikma deb, quyidagicha ta'rif beradi.

Nutqda fikr ifodalash uchun barqaror birikmaga ham ehtiyoj mavjud. Masalan, kuchli hayron bo'lib qolganlikni ta'sirchan ifodalash uchun hayron bo'lmoq fe'li yetarli emas. Shunda barqaror birikma qo'llanadi: Og'zi ochilib qoldi. *Og'zi ochilib qoldi* – ibora. U ikki mustaqil so'zdan iborat bo'lib, nutqqacha tayyor holga kelgan. Nutqdan keyin ham ongimizda shu holicha turadi. Uning atash ma'nosi hayron bo'lmoq fe'lining atash ma'nosiga teng bo'lsa-da, qo'shimcha,

³ Пермяков Г.Л. Паремнологический сборник. – М.: Наука, 1984. – Б.107.

⁴ Тошпўлатов З.Д. Афоризмларнинг жанр хусусиятлари ва бадийяти. Филол. фанлари номзоди дисс. Тошкент, 2006. – Б.3.

⁵ Саидова М. Ш. Синфдан ташқари ўқиш дарсларида мақол ва ҳикматлардан фойдаланиш. Наманган, 2021. – Б.8

⁶ Саримсоқов Б., Ҳотамов Н. Адабиётшунослик терминларининг русча - ўзбекча изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.37.

⁷ Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳмамов Н., Мирзаев Т. ва бошқалар. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2006. — Б. 135.


ya'ni hissiy va uslubiy ma'nosi, ifoda semasi bilan farqlanadi. O'zbek tilida barqaror birikma sifatida, odatda, *maqol*, *matal*, *ibora*, tasviriy ifoda e'tirof etiladi (ammo maqol va matallarning barqaror birikma ekanligi munozarali)⁸.

“Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi”⁹. Barqaror birikmalarning eng asosiy belgilari quyidagilar:

1. *Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik nutqqa tayyor holda olib kirishlik.*
2. *Ma'no butunligi.*
3. *Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.*

Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi. Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi **paremiologiya** (lotincha *parema* barqaror”, *logos*” ta'limot), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa paremiografiya (lot. *Parema* – barqaror, *grofho* yozmoq”) sanaladi. Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1.2-rasmga qarang.



1.2. Rasm. Barqaror birikmalarning turlari.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yaxlitlikni vujudga keltiradi va ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan, *qulog'i ding*

⁸ Менглиев Б.Р. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: “Тафаккур бўстони”, 2018. – Б.190-191.

⁹ Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.–Тошкент: Шарқ, 2002. – Б.103

bo'lmoq – *hushyor bo'lmoq*, *qovog'i osilmoq* – *xafa bo'lmoq*, *og'zining tanobi qochmoq* – *quvonmoq* kabi.

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologimlar deyiladi. Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so'zlar frazeologimning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan, Rais daladagi hosilni *ko'rib boshi osmonga yetadi*. Bu gapda *boshi osmonga yetdi* qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Jahon tilshunosligi qatori, turkologiyada jumladan o'zbek tilshunosligida ham frazeologiya tushunchasi hozirgi kunga qadar **keng** va **tor** ma'noda tushunilmoqda. Frazeologiyani **keng** ma'noda tushunuvchi olimlar uning tarkibiga *maqollar*, *matallar*, *aforizmlar* va boshqa tipdagi turg'un birikmalarni kiritadilar; **tor** ma'nodagi frazeologiya tarafdorlari esa ter to'kmoq, *xamirdan qil sug'urganday*, *dunyoni suv bossa*, *to'pig'iga chiqmaslik* kabi ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalarni o'rganish bilan cheklanadilar. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi. Masalan, *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi*. *Bolta tushguncha, to'nka dam oladi*. Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo'ladi. So'zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi. Maqollar fikrni ta'sirchan, bo'yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o'rinli foydalanish so'zlovchining mahorati sanaladi. O'zbek xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri bo'lgan "maqol" lug'atlarda turlicha izohlanmoqda. Bunga ishonch hosil qilish uchun bir necha lug'atlarda maqolga berilgan ta'riflarni keltirib o'tishni lozim topdik:

1. "Maqol – turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakllardagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralar. Maqol xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko'pincha maqol o'git-nasihat xarakterida bo'ladi"¹⁰.

2. "Maqol – chuqur mazmunli, qisqa va lo'nda, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli, obrazli gap ko'rinishidagi xalq og'zaki ijodi janri. Ikki va undan ortiq misrali maqollarda, odatda, to'liq qofiya kuzatiladi. Maqollarda ajdodlarimizning turmush tajribalari, tabiat va jamiyat hodisalari, ma'naviy-axloqiy masalalar

¹⁰ Хомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б. 106.

haqidagi xulosalari tajassum topgan. Maqollar asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poyetik shaklga kelgan”¹¹.

3. “Poslovitsa – maqol. Qisqa, chuqur ma’noli, nutqda keng qo’llanuvchi barqaror shaklga ega folklor janrlaridan biri bo’lib, ular xalqning ko’p asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan. Maqollar fikrni nisbiy tugal hukm tarzida ifodalashi va barqaror shaklga egaligi bilan matallardan farq qiladi. Maqollar nutq jarayonida u yoki bu vaziyat munosabati bilan fikrni lo’nda, obrazli tarzda ifodalashi bilan juda qo’l keladi ¹².

Maqol ba’zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so’z, tanbeh, mashoyixlar so’zi, hikmatli maqol, donishmandlar so’zi, otalar so’zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtmoyiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda katta. Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to’g’ri ma’noda qo’llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar matallar hisoblanadi. Masalan, *Yaxshidan bog’ qoladi, yomondan dog’*. *Qimirlagan qir oshar*.

Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so’zlar (aforizmlar) deyiladi. Masalan, *Ilmsiz inson – mevasiz daraxt. Ilm – inson ziynati*. [Abu Rayxon Beruniy].

Hikmatli so’zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik (ya’ni nutqda doimo bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko’ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylik kasb etsa ham aniq muallifning borligi bilan ulardan farq qiladi. Hikmatli so’zlar (aforizmlar) insonni fikrlashga va shu bilan birga so’zlashishga o’rgatadi. Yetarlicha so’zlarning qisqa berilishi, ma’noning chuqurligi, yorqin obrazlilik aforizmlarni uslubiy bo’yoqdorligini ta’minlaydi.

1. Har qanday badiiy nutqda ishlatilishi mumkin bo’lgan aforizmlar. Biz uni shartli ravishda kiruvchi deb nomlaymiz.

2. Mustaqil aforizmlar.

Har qanday badiiy nutqda ishlatilishi mumkin bo’lgan aforizmlar badiiy asar matniga kiritiladi. Adabiyotning turli janri bo’lmish roman, hikoya, drama, poema va ocherklarda har qanday badiiy nutqda ishlatilishi mumkin bo’lgan kiruvchi aforizmlar

¹¹ Салаев Ф., Курбониезов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б.127-128.

¹² Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.239.

uchraydi. Kiruvchi aforizmlar gap tuzilishida bo'ladi, har qanday asar tarkibida ham barqaror birlik sifatida, ham kiruvchi aforizm sifatida namoyon bo'la oladi.

Mustaqil aforizmlar – nazmda ijod eta oladigan ijodkorning donishmand dunyoqarashi, hayotiy tajribasi mujassam etilgan hikmat adabiyoti¹³ sanaladi. Hozirgi kunga kelib hikmatlar kitobidan tashqari, mustaqil aforizmlarning esa kundalik janr turlari ham mavjud.

Forobiy grammatika bilan mantiqning o'zaro uzviy aloqador ekanligini ko'rsatadi. Uning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substansiya va aksidensiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir. Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz¹⁴.

"Ingliz tilining onlayn etimologik lug'ati"da berilgan ta'rifga ko'ra: *aforizm* (Gr. ἀφορισμός aphorismos, "*bo'linish*") umumiy haqiqatni, tamoyilni yoki astoydil kuzatishni ifodalaydigan, lakonik va esda qolarli shaklda yozilgan og'zaki so'zdir¹⁵.

Taniqli paremiolog Archer Teylor aforizmni maqolning bir turi sifatida alohida belgilaydi. Muallif maqollarni adabiy va halq turlariga bo'lib, aforizmni adabiy maqol (millat, xalq, umum tomonidan tan olinib lug'atlarda, to'plamlarda o'z aksini topgan maqollar adabiy maqol) sifatida o'rganadi¹⁶.

Yuqorida keltirilgan maqollar va aforizmlarning umumiy belgilariga qaramasdan, ular o'rtasida o'ziga xos farqli xususiyatlar ham mavjud. Bular:

1. Aforizmning ko'zga tashlanadigan farqlaridan biri bu aforistik fon (tovush) hisoblanadi. Aforizmدا tarixiy voqeylik ma'lum bo'lib, unda shaxs, muallifning dunyoni anglashi (tasavvur etish) bor. Aforizm paydo bo'lgandan keyin zamon va makonda o'zgarmasdir.

Maqol esa og'zaki aytilgan vaqti ham noma'lum bo'lib, u o'z xo'jaynini (muallifi)ni yo'qotib, ko'rinishi (ma'nosi)ni o'zgartirgan va folklorlashgan (xalqchillashgan).

¹³Тафаккур тухфалари. Саъдий Шерозий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 247 б.; Тафаккур тухфалари. Фариддин Аттор. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 255 б.; Тафаккур тухфалари. Жалолиддин Румий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 245 б.

¹⁴ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент, Абдулла қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.179.

¹⁵ [Online Etymology Dictionary](https://commons.wikimedia.org/wiki/File:Aphorism_(PSF).png) [wikimedia.org/wiki/File:Aphorism_\(PSF\).png](https://commons.wikimedia.org/wiki/File:Aphorism_(PSF).png)

¹⁶ Taylor A. Selected Writings on proverbs. Helsinki: Suomalainen Tiedekatemia. 1975. – P.130.

Yana bir jihat, aforizm haqqoniylikga ega bunda muallif sifatida ko'rinish beradi. Shunday qilib aforizmni qo'llayotgan individda o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rin qolmaydi. Maqolni qo'llaganda esa ifoda etish haqiqati muammosi tushurib qolinadi, chunki bunda kishi o'z nomidan emas, balki halq tajribasiga murojaat qilgan holda so'zlaydi. Muallif yoki manba bilan aloqa – bu janrning muhim spetsifik belgisidir va u til xususiyatini emas, balki ekstralingvistik xususiyatga egadir, holbuki bu aloqa uning ahamiyatini ifoda etishda muhim rol o'ynaydi.

1. Maqollarning o'ziga hos tafovutlardan biri bu – ularning funksiyasidir. Maqollar – halq og'zaki ijodining elementi bo'lsa, aforizm adabiy tilga ta'luqli bo'lib, asosan yozma ko'rinishda ifoda etiladi. Maqollar oddiy sintaktik shaklga ega bo'ladi va ko'pincha ritmik jihatdan tartibli ko'rinishda bo'ladi. Aforizmlar prozaik shaklga burkangan (o'ralgan) va ancha murakkab sintaktik murakkabligi tabiiy holdir, chunki o'quvchi (muhlis) yozma ravishda mustahkamlangan ifodani fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

2. Maqollar umumiy mazmunli obrazli dalillarga ega, aforizmlar esa umumiy mazmunning to'g'ridan to'g'ri asosiga ega. Aforizmlarni qo'llash nisbatan aniq vaziyatlar bilan cheklangan. Maqollar esa metaforik ma'noga asosan ko'p ma'noli bo'lishi mumkin.

3. Maqollar aforizmlarga nisbatan ko'proq qo'llanilish belgisiga ega. Halq og'zaki o'lchamlari (qo'llanilishi)da baholashning utilitar (foйда ko'rish) komponenti estetik va etik birliklarda ustunlik qiladi.

4 Aforizmlar maqollardan faqli o'laroq paradoksal (mantiqqa to'g'ri kelmaydigan) mazmunga ega bo'lib qadriyatning barcha urf-odat tuzimini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

Yuqorida jahon, ingliz, o'zbek olimlarining fikrlarini tahlil qilgan holda, biz ham ishimizda aforizmga quyidagi lingvistik maqomni taklif qildik. Aforizm kitobxonlarning dunyoqarashini shakllantirish, insoniylik tuyg'ularini kamol toptirish bilan birga insonlarni tafakkur qilishga undaydi. Hikmatli so'z – inson tafakkurining katalizatori deb hisoblab, tilning mo'jizasi, marjoni, durdonasi deya ta'rif beramiz.

Xulosa qilib aytganda, aforizmlar tilshunoslikda mustaqil lingvistik birlik sifatida muhim maqomga ega. Ular sintaktik, semantik va pragmatik jihatlari bilan ajralib turadi hamda paremiologiya va frazeologiya bilan uzviy bog'liq holda o'rganilishi zarur. Aforizmlarning lingvistik maqomini chuqur tahlil qilish tilning ifoda imkoniyatlarini yanada kengroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. – Тошкент, Абдулла қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.179.

2. Тафаккур тухфалари. Саъдий Шерозий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 247 б.
3. Тафаккур тухфалари. Фариддин Аттор. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 255 б.
4. Тафаккур тухфалари. Жалолиддин Румий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 245 б.
5.

Online	Etymology	Dictionary
wikimedia.org/wikipedia/commons/d/d2/Aphorism_(PSF).png		